

GLOBAL URBANIZATSIYA SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA SHAHARLAR TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOY-FUNKSIONAL MODELLARI

Kurbanaliyeva X.I.

TDIU katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada global urbanizatsiya sharoitida kichik va o'rta shaharlarning ijtimoiy-funksional o'zgarishi hamda ularni guruhlash modellari tahlil qilinadi. Yirik megapolislar soyasida qolayotgan kichik shahar tizimlarining ijtimoiy-falsafiy qiyofasini o'rganilib, ularni aglomerativ, avtonom va tarmoqli modellarga ajratilgan. Tadqiqotda Talkot Parsonsning tizimli-funksional nazariyasi hamda G. Lappingning hududiy modellaridan foydalanilgan. Shuningdek, ushbu modellarning O'zbekiston sharoitidagi ko'rinishi mahalliy xususiyatlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Kichik va o'rta shaharlar, urbanizatsiya modellari, aglomeratsiya, avtonom shahar, sotsial kapital, ijtimoiy falsafa, tizimli-funksional nazariya, ijtimoiy harakatchanlik.*

ABSTRACT

The article analyzes the socio-functional transformation of small and medium-sized towns in the context of global urbanization, along with models for their classification. Examining the socio-philosophical profile of small urban systems that often remain in the shadow of major megacities, the study categorizes them into agglomerative, autonomous, and networked models. The research utilizes Talcott Parsons' structural-functional theory and G. Lappo's territorial models. Furthermore, the manifestations of these models within the specific conditions of Uzbekistan are highlighted on the basis of localized characteristics.

Keywords: *Small and medium-sized towns, urbanization models, agglomeration, autonomous city, social capital, social philosophy, structural-functional theory, social mobility.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социально-функциональная трансформация малых и средних городов в условиях глобальной урбанизации, а также модели их классификации. Исследуя социально-философский облик малых городских систем, остающихся в тени крупных мегаполисов, автор разделяет их на агломерационные, автономные и сетевые модели. В исследовании использованы структурно-функциональная теория Талкотта Парсонса и территориальные

модели Г. Лаппо. Кроме того, проявление данных моделей в условиях Узбекистана освещено на основе местных особенностей.

Ключевые слова: Малые и средние города, модели урбанизации, агломерация, автономный город, социальный капитал, социальная философия, структурно-функциональная теория, социальная мобильность.

KIRISH

2025-yilda dunyodagi 8,2 milliard aholining 45 foizi shaharlarda, 36 foizi shaharchalarda (posyolkalarda) va qolgan 19 foizi qishloq joylarda istiqomat qilgan [1]. Biroq zamonaviy tadqiqotlar, sotsiologik soʻrovlar va iqtisodiy tahlillarning katta qismi faqat yirik megapolislar va poytaxt aglomeratsiyalariga qaratilgan. Kichik va oʻrta shaharlar esa koʻpincha eʼtibordan chetda qolmoqda. Ammo har qanday davlatda shahar tizimining barqarorligini, demografik muvozanatni va qishloq bilan shahar oʻrtasidagi ijtimoiy koʻpriknini aynan kichik va oʻrta shaharlar ushlab turadi. Kichik va oʻrta shaharlar shunchaki Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi yirik markazlarning kichraytirilgan shakli emas. Ularning oʻziga xos sotsial muhiti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi bor. Hozirgi postindustrial jamiyatga oʻtish davrida bu shaharlar funksional va ijtimoiy jihatdan jiddiy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Ushbu oʻzgarishlarni toʻgʻri tushunish va boshqarish uchun jahon amaliyotidagi mavjud konseptual modellarni oʻrganish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik va oʻrta shaharlar sotsiumini ilmiy jihatdan tahlil qilishda jahon va mahalliy olimlar bir nechta asosiy yoʻnalishlarni ilgari surishgan. L. Servillo, R. Atkinson Gʻarbiy Yevropa tajribasida kichik shaharlarni shunchaki aholi soni bilan emas, balki ularning hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy roli va funksional oʻrni boʻyicha baholash ustuvor yoʻnalish hisoblanadi [2].

M. Vagner va A. Grouening fikricha, ilm-fanda kichik va oʻrta shaharlarga munosabatni butunlay oʻzgartirish zarur [3]. Ilgari olimlar ularga yirik megapolislar soyasidagi, unchalik ahamiyatli boʻlmagan hududlar deb qarashgan boʻlsa, ushbu tadqiqotchilar kichik shaharlarni mutlaqo mustaqil va alohida oʻrganilishi kerak boʻlgan yangi ilmiy yoʻnalish sifatida asoslashdi. A. Hamdouch va K. Banovaklar esa mazkur shaharlarning ichki sotsial resurslari va ijtimoiy tarmoqlariga eʼtibor qaratib, kichik shaharning muvaffaqiyati mahalliy elita va jamoaning faolligiga, yaʼni hududiy kapitalning uygʻunlashuviga bogʻliqligini taʼkidlashadi [4].

MDH maktabi vakillaridan G.M. Lappo o‘zining “Shaharlar geografiyasi” asarida kichik shaharlarning mukammal funksional tasnifini berib, yirik aglomeratsiyalar atrofidagi yo‘ldosh shaharlar muammosini ochib bergan [5].

I. Sekushina esa urbanizatsiya jarayonlarining kichik va o‘rta shaharlar demografiyasiga ta’sirini statistik tahlil qilib, migratsiya oqimlari oqibatida yo‘qotilayotgan resurslarni yangi tarmoqlarga yo‘naltirish zarurligini asoslagan [6].

O‘zbekistonda shahar tizimlari va ularning demografik xususiyatlari dastlab iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan A.S. Soliyev, S.K. Tashtayeva, M.M. Egamberdiyevlar tomonidan o‘rganilgan [7]. B.X. Umurzakov va Z.N. Tojievlar esa O‘zbekistondagi urbanizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos demografik tendensiyalari va shahar aholisining sun‘iy ko‘payish sur‘atlarini tizimli tahlil qilishgan [8]. Keyingi yillarda urbanizatsiyani keng qamrovli ijtimoiy-institutsional va madaniy jarayon sifatida baholashga bo‘lgan qiziqish ortdi. Xususan, Q.B. Sayidov tomonidan urbanizatsiyaning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotiga ta’siri ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tadqiq etilgan bo‘lsa [9], kichik shaharlar kontekstida ijtimoiy infratuzilmaning inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rni Q.N. Qayumov tomonidan sotsiologik yondashuvlar asosida o‘rganilgan [10]. Biroq, ushbu izlanishlarga qaramasdan, aynan kichik va o‘rta shaharlar ijtimoiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari va ijtimoiy kapital transformatsiyasi haligacha yaxlit ijtimoiy-falsafiy tahlil obyekti sifatida tizimli tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida Talkot Parsonsning strukturaviy-funksional tahlil metodi olingan [11]. Parsonsning to‘rtlik modelini kichik shahar sotsiumiga tizim sifatida quyidagicha amalda qo‘llash mumkin:

1. **Adaptatsiya:** Shahar iqtisodiyotining moslashuvchanlik darajasi, mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari va aholining bandlik tuzilmasi.
2. **Maqsadga erishish:** Mahalliy hokimiyat organlari va boshqaruvchi elitaning strategik qarorlari, shaharni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar.
3. **Integratsiya:** Mahalla tizimi doirasidagi ijtimoiy munosabatlar, aholi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va ijtimoiy birdamlik.
4. **Latentlik:** Lokal sotsiumga xos bo‘lgan tarixiy xotira, an’analar, madaniy kodlar va hududiy identifikatsiya mezonlari.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-falsafiy tahlil uslubidan foydalanilgan holda, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” [12] hamda Ibn Xaldunning “Al-Umran” (shahar sivilizatsiyasi) [13] konsepsiyalari zamonaviy global urbanistik modellar bilan qiyoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Jahon tajribasi va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda kichik va o'rta shaharlarning ijtimoiy qiyofasi uchta asosiy model asosida o'zgarib bormoqda:

1. Yo'ldosh shahar modeli va uning sotsiomadaniy asoratlari

Ushbu tizim yirik megapolislar yoki poytaxtning to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy, demografik va funksional ta'sir doirasiga tushib qolgan shahar tuzilmalariga xosdir. O'zbekistonning real urbanistik voqeligida, xususan Toshkent aglomeratsiyasi misolida bu jarayon Keles, Yangiyo'l, Ohangaron va Nurafshon kabi shaharlar hayotida yaqqol ko'rinadi. Mazkur hududlarning ichki sotsium arxitektonikasi va kundalik hayot ritmi poytaxtning kuchli va doimiy sotsial-iqtisodiy bosimi ostida qayta shakllanmoqda. Modelning eng asosiy strukturaviy xususiyati — bu o'ta intensiv, tizimli va kundalik xarakterga ega bo'lgan **“mayatniksimon” migratsiya** hodisasidir. Mehnatga layoqatli, intellektual va ijtimoiy jihatdan faol mahalliy aholining mutlaq ko'pchiligi kunning faol qismini va o'z sotsial energiyasini poytaxtda sarflaydi. Natijada, yo'ldosh shahar o'zining klassik sotsial-iqtisodiy funksiyalarini, ya'ni ichki ish o'rinlari yaratish, avtonom madaniy-maishiy markaz bo'lish xususiyatlarini yo'qotib boradi. Ilmiy tilda bu jarayon shahar makonining **“yotoqxonada xoslik”** holatiga kelishi deb ataladi [14].

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan eng xavfli jihati — bu erda uzoq yillar davomida shakllangan lokal shahar identifikatsiyasi tanazzulga uchraydi. Mahalliy aholi ongida o'zi yashab turgan kichik shaharga nisbatan daxldorlik hissi pasayib, sotsiomadaniy marginal qatlam yuzaga keladi. Ushbu qatlam an'anaviy qishloq ijtimoiy nazoratidan butunlay uzilgan, biroq poytaxt sotsiumiga ham to'laqonli va tizimli integratsiya bo'la olmagan o'ziga xos sub'ektiv makonda yashaydi.

T. Parsonsning tizimli modeliga ko'ra, aglomerativ xarakterdagi yo'ldosh shaharlarda aynan **Integratsiya** funksiyasi, ya'ni ichki ijtimoiy nazorat mexanizmlari eng ko'p zarar ko'radi. Mahallaning an'anaviy regulyativ va tarbiyaviy roli bu erda zaiflashadi, chunki jamoa a'zolari sotsial faolligining asosiy qismi lokal hududdan tashqarida kechadi. Natijada qo'shnichilik aloqalari uziladi, begonalashuv kuchayadi.

E. Soyerning **“fazoviy adolatsizlik”** konsepsiyasiga tayanadigan bo'lsak [15], tashqi tomondan ko'p qavatli uylar qurilishi urbanizatsiya jarayonini shiddatli ketayotgandek ko'rsatsa-da, ichki ijtimoiy infratuzilma — sifatli maktabgacha ta'lim, madaniy-ma'rifiy maskanlar, sotsial integratsiya maydonlari poytaxt ko'rsatkichlaridan keskin orqada qolaveradi.

2. Avtonom-agrar model: Sotsial lift va lokal moslashuv

Yirik ma'muriy va sanoat markazlaridan geografik jihatdan uzoqda, asosan intensiv qishloq xo'jaligi hududlari qurshovida rivojlanayotgan va o'z-o'zini ta'minlashga yo'naltirilgan mustaqil shaharlar ushbu modelning asosini tashkil etadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatining kichik shahar tizimlari buni yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu model doirasida yuzaga keladigan eng asosiy sotsial muammo — yoshlar va malakali kadrlar orasida tashqi demografik migratsiyaga moyillikning o'ta yuqoriligidir.

Shunga qaramay, mazkur shaharlarda ijobiy sotsiomadaniy fenomen sifatida, Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida tasvirlagan “fozil jamoa” ideallariga yaqin bo'lgan o'zaro hamjihatlik, an'anaviy mahalla birdamligi va kommunal birdamlik juda barqaror saqlangan. Parsons tizimi bo'yicha aytganda, bu erda **Latentlik**, ya'ni madaniy namunalarni saqlash va tizim barqarorligini ta'minlash funksiyasi dominantlik qiladi.

Biroq, eng diqqatga sazovor va sotsiologik jihatdan kutilmagan tendensiya shundaki, ushbu lokal sotsiumda yosh avlodning sotsial mobilligi rasmiy institutlar — ya'ni oliy ta'lim tizimi orqali emas, balki lokal bozor arxitektonikasi, agrosanoat xizmatlari va xususiy tadbirkorlik kabi muqobil va norasmiy iqtisodiy tarmoqlar orqali kechadi. Masalan, Sirdaryo viloyatining Baxt shahri lokal sotsiumi sotsiologik tahlil qilinganda, yoshlarning oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlari ancha past bo'lishiga qaramay, ularning sotsial depressiyaga tushmayotganligi aniqlangan. Buning sababi, yosh avlodning mahalliy bozor iqtisodiyoti va xizmat ko'rsatish zanjiriga erta integratsiyalashuvidir. Bu holat o'ziga xos “lokal sotsial lift” vazifasini o'tab, ijtimoiy moslashuv va moddiy barqarorlikni ta'minlashning eng real va ratsional strategiyasi sifatida xizmat qilmoqda [16]. Bu esa klassik g'arb sotsiologiyasidagi “ta'lim — asosiy sotsial lift” degan universal tezisning lokal darajada transformatsiyaga uchrashini isbotlaydi.

3. Tarmoqli — Postindustrial-Smart model.

Bu yo'nalish axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan, jismoniy masofa va geografik cheklovlar tushunchasini butunlay inkor etuvchi eng zamonaviy shahar sotsium modelidir. Bu shaharlar iqtisodiy jihatdan yirik zavod yoki sanoat korxonalariga bog'liq bo'lmaydi. Aksincha, kichik shahar o'zining yuqori ekologik ustunligi, tabiatga yaqinligi, arzon va xavfsiz yashash sharoiti hamda tinch sotsial iqlimi tufayli zamonaviy “raqamli migrantlar” uchun jozibador markazga aylanadi [17].

Ibn Xaldunning Shahar tsivilizatsiyasi konsepsiyasi ushbu modelda yangicha mazmun kasb etadi: endilikda shahar sotsiumining kuchi uning jismoniy zichligi yoki

mexanik aholi sonida emas, balki global axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga qay darajada ulanganligida namoyon bo‘ladi. Shahar o‘zining lokalligi va madaniy o‘ziga xosligini to‘liq saqlagan holda global makonning ajralmas qismiga aylanadi.

Jeyn Jeykobsning “kichik urbanizm” falsafiy merosidan kelib chiqib xulosa qilinsa [18], O‘zbekiston sharoitida kichik va o‘rta shaharlarni sun‘iy ravishda, stixiyali tarzda faqat “beton va g‘isht markazlariga” aylantirish lokal jamiyatda jiddiy ijtimoiy anomiyalarni, sotsial begonalashuvni va jinoyatchilikning ortishini keltirib chiqarishi mumkin. Negaki, shahar faqatgina binolar majmuasi emas, u birinchi navbatda tirik sotsial organizmdir.

Manuel Kastelsning “tarmoqli jamiyat” nazariyasiga muvofiq [19], kichik shaharlarni saqlab qolish va rivojlantirishning eng oqilona ijtimoiy-falsafiy yo‘li — mahalliy aholi o‘rtasidagi o‘zaro sotsial ishonch, mahalla munosabatlari va ijtimoiy kapitalni asrab qolgan holda, ularga raqamli va innovatsion imkoniyatlarni bosqichma-bosqich joriy etishdir. Ya’ni, kelajak ssenariysi “Global fikrlash — lokal harakat qilish” tamoyiliga tayanishi shart. Robert Putnam ta’kidlaganidek, jamoaviy birdamlikni tashqi tarmoqlar bilan bog‘lovchi ko‘priklar orqali rivojlantirishgina kichik shaharlarni global inqirozlardan asrab qoladi [20].

XULOSA

O‘tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar hamda tizimli modellashtirish asosida quyidagi yakuniy xulosa va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Kichik va o‘rta shaharlarni ilmiy interpretatsiya qilishda faqat aholi soniga tayanadigan demografik-statistik yondashuvlardan voz kechib, ularning sotsial funksiyasi, hayotiy dunyosi va ijtimoiy kapitalini o‘rganuvchi konseptual modellashtirishga o‘tish zarur.

2. O‘zbekistonning kelgusi urbanizatsiya dasturlarida ikkiyoqlama strategiyani qo‘llash maqsadga muvofiq. Aglomeratsiya doirasidagi yo‘ldosh shaharlar uchun ularni yirik markaz bilan transport, logistika va ijtimoiy xizmatlar jihatidan to‘liq sinxronlashtiruvchi Aglomerativ-Integratsion boshqaruv modelini joriy etish. Agrar va chekka hududlardagi shaharlar uchun esa ichki sotsial kapital, o‘z-o‘zini boshqarish va mahalliy tadbirkorlik muhitini qo‘llab-quvvatlovchi Endogen-Tarmoqli model ssenariysini tatbiq etish zarur.

3. Keles, Yangiyo‘l va Nurafshon kabi intensiv “mayatniksimon” migratsiyaga uchragan shaharlarda aholining poytaxtga sotsiomadaniy qaramligini kamaytirish va lokal identifikatsiyani tiklash maqsadida, zamonaviy madaniy-ma’rifiy markazlar, kovorking zonalar va yoshlar teatr-studiyalarini barpo etish. Bu qadam hududning faqatgina “yotoqxon makoni” bo‘lib qolish xavfini bartaraf etadi.

4. Ekologik jihatdan toza va tinch iqlimga ega bo‘lgan ayrim chekka kichik shaharlarga qonunchilik darajasida “Kreativ-Smart shahar” maqomini berish. Ushbu hududlarga ko‘chib o‘tadigan va masofadan ishlaydigan IT-mutaxassisleri, dizaynerlar va intellektual mehnat egalari uchun daromad solig‘i bo‘yicha maxsus imtiyozlar tizimini joriy etish. Bu chora hududlarda kreativ sinf konsentratsiyasini oshiradi.

5. “Smart-Mahalla” modeli orqali Mahallaning regulyativ rolini raqamlashtirish. Tarmoqli model elementlarini milliy qadriyatlar tizimiga o‘tkazish maqsadida, kichik shaharlardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari faoliyatiga raqamli sotsiologik monitoring va jamoat nazorati platformalarini integratsiya qilish. Bu orqali an’anaviy ijtimoiy ishonch elementlarini saqlab qolgan holda, mahalliy hokimiyat organlari bilan virtual muloqot va sotsial loyihalarni hamjamiyat ssenariysi asosida amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. (2025). World Urbanization Prospects 2025: Summary of Results. UN, New York, p. 5.
2. Servillo, L., Atkinson, R., & Hamdouch, A. (2017). Small and medium-sized towns in Europe: Conceptual, methodological and policy issues. *Tijdschrift voor economische en sociale geografie*, 108(4), pp. 365-379.
3. Wagner, M., & Grove, A. (2021). Research on Small and Medium-Sized Towns: Framing a New Field of Inquiry. *World*, 2(1), pp. 105–126. <https://doi.org/10.3390/world2010008>
4. Hamdouch, A., Demaziere, C., & Banovac, K. (2017). The socio-economic profiles and development trajectories of small and medium-sized towns in Europe. *Regional Studies*, pp. 1-15.
5. Лаппо, Г. М. (1997). География городов. Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 480 с.
6. Секушина, И. (2018). Урбанизация в России и значение малых и средних городов в развитии сельских территорий. *Траектория науки*, Т. 4, № 8, с. 3001-3012.
7. Солиев, А. С., Таштаева, С. К., & Эгамбердиева, М. М. (2020). Шаҳарлар географияси. Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 186 б.
8. Умурзаков, Б. Х., & Тожиева, З. Н. (2021). Ўзбекистон: демографик ривожланиш ва урбанизация. Тошкент: Университет, 210 б.

9. Сайидов, Қ. Б. (2023). Шаҳар урбанизацияси ва унинг ижтимоий-маданий ривожланишига таъсири. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Бухоро, 24 б.
10. Қаюмов, Қ. Н. (2022). Кичик шаҳарларда ижтимоий инфратузилма объектларини бошқаришнинг социологик жиҳатлари. *Jamiyat va boshqaruv*, № 3, 85-92 б.
11. Parsons, T. (1951). *The Social System*. Glencoe, IL: Free Press.
12. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. “Yangi asr avlodi”, 2025. 304 б.
13. Ибн Халдун. Муқаддима. Тошкент, “TRAST AND SUPPORT” нашриёти, 2025. 400 б.
14. Champion, T. (2001). Testing the differential urbanisation model on British data. *Town Planning Review*, 72(1), pp. 73-96.
15. Soja, E. W. (2010). *Seeking Spatial Justice*. University of Minnesota Press, p. 288.
16. Toshchenko, J. T. (2018). Phantoms of social reality: Metamorphoses of social lift in small towns. *Sociological Studies*, (4), pp. 34-45.
17. Florida, R. (2002). *The Rise of the Creative Class*. Basic Books, New York, p. 432.
18. Jacobs, J. (1961). *The Death and Life of Great American Cities*. New York: Random House, p. 458.
19. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Wiley-Blackwell, Oxford, p. 624.
20. Putnam, R. D. (2000). *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. New York: Simon & Schuster